Matnshunos olimlarning matnshunoslik haqidagi fikrlari

Ro'ziyeva Sevara

Samarqand davlat universiteti

Kattaqo'rg'on filiali 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Matnshunoslik haqida ma'lumot. Matnshunos olimlar matnshunoslik fani haqidagi qarashlari.Matnshunoslik fanning ahamiyati, olimlarning matnshunoslik haqidagi fikrlari.Matnshunoslikning shakllanishi.

Kalit so'zlar: Matnshunoslik, matn, mutaxassislar,fundamental, diniy-mistik, tushuncha, vazifa.

Annotation: Textual information. The opinions of textual scientists about the science of textual studies. The importance of the science of textual studies, the opinions of scientists about textual studies. The formation of textual studies.

Key words: Textology, text, experts, fundamental, religious-mystical, concept, task.

Hozirgi zamon adabiyot ilmida badiiy asar matni tahlil va talqinning asosiy ob’ektiga aylandi. Zotan, matn zamirida asar muallifining dunyoqarashi, inson va jamiyat haqidagi konseptsiyasi, badiiy-estetik printsiplari, san’ati, makon va zamon, milliy tafakkur mujassam bo‘ladi. Qolaversa, matn tahlili badiiy asarni xolis baholashga imkon yaratadi. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy asar tahlilining zamonaviy, ilg‘or tendentsiyalari bo‘y ko‘rsata boshladi. Adabiy merosga yangicha nuqtai nazardan yondashish, mumtoz adabiyotimiz namunalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyaning eng ta’sirchan asosi sifati har jihatdan o‘rganish istiqlol yillarida faol tus oldi. Yaqin o‘tmishda “diniy-mistik”, “g‘ayrisho‘roviy”, “saroy adabiyoti” degan siyosiy yorliqlar bilan o‘qish-o‘rganish man etilgan asarlar ilmiy o‘rganilib, ko‘p nusxalarda chop etildi. Bu borada matnshunoslar, tadqiqotchilar xizmati e’tirofga loyiq. Biroq adabiy merosimiz namunalarini bugungi talab darajasida mukammal tadqiq etish va nashrga tayyorlash matnshunoslik sohasi oldiga jiddiy vazifalarni qo‘yayotgani sir emas. Ayni paytda matnshunoslik muammolari nimalardan iborat, ularning yechimi qanday, degan savollar dolzarb bo‘lib turibdi. Ana shu masalalarni muhokama qilish va tegishli xulosalarga kelib olish uchun taniqli olimlar, tadqiqotchilardan bir guruhini davra suhbati bo’ldi. Quyida siz taniqli adabiyotshunos olimlar: professor Suyima G‘anieva, filologiya fanlari doktorlari — Nurboy Jabborov, Nusratullo Jumaxo‘ja, Shodmon Nafasov, filologiya fanlari nomzodlari — Qodirjon Ergash, Rashid Zohidov va Qo‘ldosh Pardaevning bugungi matnshunoslik muammolariga doir fikr-mulohazalari bilan tanishamiz.Suyima G‘ANIYEVA: — Bugungi kunda matnshunosligimiz oldida jiddiy vazifalar turibdi. Jumladan, ko‘plab asarlarning ilmiy-tanqidiy matnlarini tayyorlash zarur. Shu kungacha Lutfiy, Sakkokiy singari shoirlar asarlari bosilib chiqqan. Biroq ular devonlarining mukammal nashrlarini tayyorlash lozim. Mana, yaqinda Lutfiyning avvalgi nashrlariga kirmay qolgan she’rlarini Anqara nashri asosida chop etdik. “Majolis un-nafois” izohlari bilan nashr qilinmoqda. Kelgusida Lutfiy devonining mukammal nashrini tayyorlashimiz lozim. Sakkokiy va yana boshqa ko‘p shoirlarning mukammal nashrlarini tayyorlashni yo‘lga qo‘yish zarur.Alisher Navoiy asarlari nashrlari ustida ham amalga oshiriladigan ishlar talaygina. Masalan, shoir asarlarining akademik (ilmiy), ilmiy-ommabop nashrlarini tayyorlash kerak. Ularni tayyorlashda, albatta, shu kungacha chiqqan nashrlardan foydalanish bilan birga qo‘lyozmalarga ham qayta murojaat etish lozim. Matnshunoslikdagi ilmiy-tanqidiy matn, chog‘ishtirma matn, ilmiy nashr, ilmiy-ommabop nashr kabi tushunchalarni, ular o‘rtasidagi farqlarni tushunib yetishimiz kerak. Chop etilayotgan asarga ilova qilinadigan

sharh va izohlar, lug‘atlar ham shunga qarab belgilanishi lozim. Shu paytgacha bizda “Xazoyin ul-maoniy”ning ilmiy matni mavjud emas. Bizning nazarimizda, keyingi yillardagi dastlabki mukammal nashr hisoblangan “Hazoyin ul-maoniy” (1959 — 1960), keyingi 20 jildlikka kirgan devonlar ham ilmiy-tanqidiy matn asosida chop etilmagan. Albatta, ularni tayyorlash uchun ko‘p mehnat sarflangan, katta-katta olimlarimiz jiddiy izlanishlar olib borganlar. Nurboy JABBOROV: — Albatta, bu sohada oldimizda talaygina vazifalar turibdi va ular nihoyatda dolzarbdir. Men, avvalo, matnshunoslikda erishilgan yutuqlarimizni alohida ta’kidlab o‘tishni istardim.

O‘zbek matnshunosligi shu paytgacha, shubhasiz, salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Bu yutuqlar, ayniqsa, ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy asarlarini o‘rganishda yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Porso Shamsiev, G‘ulom Karimov, Hamid Sulaymon, Aziz Qayumov, Suyima G‘anieva singari ustoz olimlarning bu boradagi faoliyati tahsinga loyiq. “Xamsa”, “Mezon ul-avzon”, “Majolis un-nafois” kabi benazir asarlarning ilmiy-tanqidiy matni yaratilgani navoiyshunoslikni yangi bosqichga yuksaltirgani bugun hech kimga sir emas. Matnshunoslikda erishilgan bu yutuqlar keyingi davrda Bobur, Ogahiy, Furqat va boshqa mumtoz shoirlar, ijodkorlar merosi misolida davom ettirilayotgani quvonarli hol.

Matnshunoslik ancha taraqqiy etgan ayrim mamlakatlarda muayyan milliy adabiyot tarixida o‘ziga xos maqomga ega har bir ijodkor asarlari yuzasidan keng qamrovli tekstologik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bizda esa, navoiyshunoslikni istisno qilganda (vaholanki, bu borada ham hal etilishi zarur bo‘lgan muammolar yetarli), ahvol maqtanarli emas. Ko‘proq bahslarimiz mumtoz adabiyot namunalarining joriy imloga tabdilidagi xatolarga oid ekani, matnshunoslikning fundamental masalalari e’tibordan chetda qolayotgani ham buning isbotidir. Hamon mumtoz adabiy merosimiz namunalarini tabdil qilishning ilmiy printsiplarini ishlab chiqa olganimiz yo‘q. Turfa xilliklar, xatoliklar negizi shunga ham borib taqaladi. Eski o‘zbek yozuvini o‘zlashtirgan ba’zi mutaxassislarimiz arab, fors tillaridan bexabar. Bularning barchasini bilganlarda esa, adabiy idrok yetishmaydi. Bunga layoqatli bo‘lsa, mumtoz ijodkorlarimiz e’tiqodining asosi bo‘lgan islom arkonlari va tasavvuf bo‘yicha tasavvuri chala. Xullas, muammo ko‘p. Ularni hal etish uchun ta’lim standartlarini, o‘quv dasturlarini ana shu talablarga muvofiqlashtirish zarur.Nusratullo JUMAXO‘JA: — Meningcha, birinchi navbatda, matnshunoslikning markaziy tashkiliy masalalari to‘g‘risida muhokama yuritib, qat’iy bir to‘xtamga kelib olish zarur. Bular — maxsus matnshunoslik hay’atini tuzish, matnshunoslik jarayonlariga yagona andozaviy mexanizm sifatida xizmat qiladigan matn imlosi qoidalarini tuzish, matnlarni tayyorlaydigan va chop etadigan mutaxassis hamda nashriyotlarning vakolatlilik darajasini belgilash, mamlakat miqyosidagi matnshunoslik ishlarini muvofiqlashtirishdan iboratdir.

Hozir mumtoz asarlar matnshunosligi bo‘yicha yetuk malakali mutaxassislar barmoq bilan sanarli darajada oz. Agar ular sarhisob qilinadigan bo‘lsa, bir-ikki kishidan nariga o‘tish ham qiyin. Chunki qolganlari sezilarli darajada faol emas. Ehtimol, bu mavjud matnshunos mutaxassislarga e’tibor va rag‘bat kamligidandir. Aksariyat mumtoz matn nashrlarida sohaning qilni qirq yoradigan zahmatkash mutaxassislaridan foydalanmaslik, aksincha, ularni chetlab o‘tishga intilish achinarlidir. Matnshunoslik amaliyotiga mana shunday yondashuv oqibatida bugungacha bironta adibimizning merosini matn sifati va saviyasi jihatidan mukammal darajada chop etilgan, deya olmaymiz. Alisher Navoiyning 20 jildli “Mukammal asarlar to‘plami” ham bundan mustasno emas. Uni buyuk mutafakkir merosining hajmi jihatidan mukammal nashri deyish mumkin. “MAT” tuzuvchi, taqrizchi va mas’ul muharrirlari doirasi, asosan, noshir muassasa mutaxassislaridan tarkib topgan.N.ShODMONOV: — Shuni alohida ta’kidlash lozimki, matnshunoslik faqat yozuvni bilish bilangina bajarilishi mumkin bo‘lgan ish emas.

Matnshunos, birinchidan, davrning falsafiy estetik printsiplarini yaxshi o‘zlashtirgan; ikkinchidan, milliy taraqqiyot ehtiyojlarini anglagan; uchinchidan, ona tilining tarixi, buguniga tegishli bilimlarni, jumladan, yozuvlar tarixini, boshqa tillar ta’siri va matnlardagi ishtirokini to‘la egallagan; to‘rtinchidan, adabiyotshunoslik qoidalaridan mukammal xabardor mutaxassis bo‘lishi kerak. Aks holda, ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Demak, matnshunosligimiz oldidagi hozirgi eng muhim vazifa ikkita: birinchisi, matnshunoslik bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash doirasini yanada kengaytirish lozim. Buning uchun mavjud universitetlar o‘zbek filologiyasi fakultetlari talabalariga matnshunoslik fani umumkasbiy fanlar qatorida o‘qitilishi, magistrlar tayyorlanishi maqsadga muvofiq. Ikkinchisi, o‘zbek matnshunosligining nazariy asoslari, jumladan, tadqiqot, tahqiqot va nashr usullari, metodologiyasi ishlab chiqilishi zarur. Boshqa tillarda yaratilgan bunday qo‘llanmalar o‘zbek matnshunosligining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish, adabiy manbalarni nashrga tayyorlash uchun ilmiy-metodologik mezon bo‘la olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Gough, P.B., Tunmer, W.E. 1986. "Dekodlash, o'qish va o'qish nogironligi". Tuzatish va maxsus ta'lim, 7:

2.Jalilov, K. Baholash nazariyasi asoslari. - Toshkent: Akademnashr, 2020.

3.Азимова, И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний

перцепциясининг психолингвистик тадқиқи (монография). - Тошкент: Навоий университети, 2019.

4.Alderson, Ch. J. O'qishni baholash. Kembrij universiteti nashriyoti, 2000 yil.

5.Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining

psixolingvistik tadqiqi: monografiya. -T., 2019